

“Hamkorbank” ATBda “Yutuqli safar kartasi” yutuqli aksiyasini joriy etish tartibi

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu tartib Hamkorbank tomonidan ishlab chiqilgan **“Yutuqli safar kartasi”** yutuqli aksiyasini joriy etish maqsadida aksiyani o‘tkazilish shartlarini, g‘oliblarni aniqlash hamda yutuqli sovrinni g‘oliblarga topshirish tartibini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya tavakkalchilik asosida tashkil etilgan lotoreya o‘yini emas, aksiya ishtirokchilari mol-mulkini tavakkalchiligiga olib kelmaydi.
- 1.3. Aksiya ishtirokchisi bo‘lish majburiy emas.
- 1.4. Aksiya 2026-yil 1-apreldan 2026-yil 31-mayga qadar o‘tkaziladi. Aksiyada ishtirok etish shartlari, aksiyani o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi bankning hamkorbank.uz sayti orqali e‘lon qilib boriladi.
- 1.5. “Hamkorbank” ATB mazkur tartib-qoidalarga o‘zgartirish kiritish yoki aksiyani muddatidan oldin to‘xtatish huquqiga ega. Bu haqda tegishli e‘lonlar 3 kun ichida hamkorbank.uz saytining yangiliklar qismida joylashtiriladi.

2. Aksiya o‘tkazish muddati va manzili

- 2.1. Aksiyani o‘tkazish hududi: O‘zbekiston Respublikasi.
- 2.2. Aksiya o‘tkazish sanasi: 2026-yil 1-apreldan 2026-yil 31-maygacha (2 oy, 2 bosqich).

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

- 3.1. Aksiyada 2026-yil 1-apreldan 2026-yil 31-maygacha Hamkorbank Uzcard kartasini (istalgan turdagi) rasmiylashtirib, kamida 50 (Ellik) ming so‘m miqdorida avtomobil yoqilg‘i quyish shoxobchalarida yoqilg‘i quyish uchun to‘lovlarni amalga oshirgan mijozlar ishtirok etadi.
- 3.2. Har bir fuqaro aksiyada bir nechta ishtirokchi sifatida qatnashish imkoniyatiga ega.
- 3.3. Har bir amalga oshirilgan to‘lov uchun (50 (ellik) ming so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda) ishtirokchiga 1 dona qatnashuvchi raqam ajratiladi.
- 3.5. Ushbu yutuqli aksiyada 16 yosh va undan katta yoshdagi rezident yoki norezident fuqarolar qatnashishi mumkin.
- 3.6. Aksiyada “Hamkorbank” ATBning barcha xodimlari ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Ishtirokchilarning huquqlari va majburiyatlari

- 4.1. Aksiyada ixtiyoriy ravishda qatnashish mumkin.
- 4.2. Aksiya ishtirokchilari Hamkorbank Uzcard kartasini (istalgan turdagi) rasmiylashtirib, kamida 50 (ellik) ming so'm miqdorida to'lovlarni (avtomobil yoqilg'i quyish shoxobchalarida yoqilg'i quyish uchun) amalga oshirgan bo'lishlari shart.
- 4.3. Aksiya natijalariga ko'ra g'olib bo'lgan ishtirokchi tegishli tarzda sovg'asini olishi mumkin.
- 4.4. Aksiyada g'olib bo'lgan shaxslar o'zlarining ismi-shariflari va suratlarini reklama qilish uchun rozilik beradilar.
- 4.5. Aksiya g'oliblari sovg'alarni olib ketish xarajatlarini o'z hisobidan amalga oshiradilar.
- 4.6. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 52-bob talablariga asosan yutib olingan sovg'a uchun soliq va boshqa majburiy to'lovlar ishtirokchi tomonidan to'lanadi.

5. Aksiya yutuq fondi

- 5.1. Aksiya doirasida quyidagi sovrinlar taqdim etiladi:
 - Samsung smartfonlari – 10 dona;
 - Noutbuklar – 10 dona;
 - Karcher – 10 dona.
- 5.2. Sovg'alar g'oliblar aniqlangan sanadan keyin 10 ish kunida taqdim etiladi.
- 5.3. Har bir g'olibga yuqoridagi sovg'alardan biri yangi va kafolatlangan holda taqdim etiladi.
- 5.4. G'oliblarga yaroqsiz holdagi sovg'alar berilmaydi.
- 5.5. O'zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi"ga asosan yutib olingan sovg'a uchun barcha soliq va majburiy to'lovlar aksiya g'oliblari tomonidan to'lanadi.

6. Aksiya reklamasi

- 6.1. **"Yutuqli safar kartasi"** aksiyasi bankning barcha axborot resurslarida (veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, flayerlar va boshqalar) uzluksiz reklama qilinadi.
- 6.2. **"Yutuqli safar kartasi"** aksiyasi reklama fondi 330 000 000 (Uch yuz o'ttiz million) tashkil qiladi.

7. Aksiya g'oliblarini aniqlash va taqdirlash

- 7.1 Aksiya g'oliblarini aniqlash uchun maxsus komissiya tashkil etiladi. Komissiya tarkibi komissiya raisi va a'zolaridan iborat bo'ladi.

- 7.2 Aksiya g'oliblarini aniqlash maxsus komissiya ishtirokida amalga oshiriladi.
- 7.3 Aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilar ro'yxati bank dasturidan olingan hisobotga asosan shakllantiriladi. Mijozlar ismi-shariflari random tartibida saralab olinadi va har bir ishtirokchiga alohida tartib raqam beriladi. Bunda bir ishtirokchiga kelgan o'tkazmalarning soniga qarab bir nechta tartib raqam berilishi mumkin.
- 7.4 Aksiya g'oliblari random.org yoki shu kabi tasodifiy tanlash generatori orqali aniqlanadi.
- 7.5 Aksiya g'oliblarini aniqlash jarayoni ochiq va shaffof tarzda o'tkazilishini ta'minlash maqsadida bankning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida translyatsiya qilinadi.
- 7.6 Aksiya g'oliblari aniqlanganidan so'ng bank veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.
- 7.7 Aksiya g'oliblariga sovg'alar, ular pul o'tkazmalari olgan "Hamkorbank" ATB bank ofislari orqali aksiya g'oliblari aniqlangan kundan so'ng 10 ish kunida taqdim etiladi.
- 7.8 Bank va aksiya ishtirokchilari o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etiladi.
- 7.9 Muzokaralar orqali hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida belgilangan tartibda Sud orqali hal etiladi.
- 7.10 Yutuqlar g'oliblarning o'zlariga va ularning qonuniy vakillariga(notarial tasdiqlangan) ham taqdim etilishi mumkin.
- 7.11 Yutuqlar g'oliblarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan taqdim etiladi.
- 7.12 G'oliblar yutuqni olish chog'ida o'zlarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim qilib, daromad solig'ini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olgan holda to'lovni amalga oshiradilar.

8. Yakuniy qoidalar

- 8.1. Bank fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarini bajarish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 8.2. Aksiya o'tkazish shart-qoidalari bo'yicha batafsil ma'lumotni hamkorbank.uz sayti orqali yoki bankning Aloqa markazining 1256 qisqa raqamlarga murojaat qilish orqali olinishi mumkin.
- 8.3. Aksiyada ishtirok etuvchi mijozlar ushbu shart-qoidalarni qabul qilishlari lozim.